

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTERFAOI METODLARDAN
FOYDALISHNING AFZALLIKLARI**

Dustyorova Himoyat Diyor qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz tili fakulteti

Xorijiy tili va adabiyoti, 2-kurs talabasi

himoyatdustyorova@gmail.com

+998937190523

Samarqand, O‘zbekiston

Ilmiy rahbar: Z. Z. Salieva

Samarqand davlat chet tillari instituti

Ingliz tili kafedrasini, katta o‘qituvchisi

ziroat.salieva@gmail.com

+998933455555

Samarqand O‘zbekiston

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada pedagogning o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatishda qo‘llaydigan turli interfaol metodlari va materiallaridan foydalanish haqida so‘z yuritiladi. Ingliz tili fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, shuningdek, fanni o‘zlashtirish murakkabligini inobatga olgan holda ularning barcha imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tilni rivojlantirishda yangi metodlardan misollar keltirib, ularni amaliyotda qanday qo‘llashning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, fan, metodika, o‘quvchi, pedagog, uslub, amaliyot, texnologiya, dars.

Chet tilini o‘rganish va o‘rgatish hozirgi kundagi eng dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Chunki chet tiliga bo‘lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. ”Chet tillari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan maktablar uchun Prezident sovrini ta’sis etildi“, - Shavkat Mirziyoyev[6]. Darhaqiqat, chet tilini rivojlantirish orqali dunyo tan olgan davlatlar standartiga javob bera oladigan maktablar uchun dars, darsliklar yaratish har bir pedagogning vazifasidir. Ingliz tilini o‘rganishga qiziqish bolalarda bog‘cha yoshidan paydo bo‘layotgani eng quvonarlidir, chunki maktabga qadam qo‘ygan aksariyat bolalar inglizcha so‘zlarni be‘malol yoddan aytib, ularni amalda qo‘llay olmoqda. Bunda til mutaxassislarining o‘rni beqiyos. Maktab davridayoq xalqaro darajalarga erishayotgan o‘quvchilar soni kundan kunga kengayib bormoqda. Shuningdek, chet tilidan xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritib, milliy olimlarimizdan tashqari dunyoning top 1000 talikka kirgan universitetlarga

muddatidan oldin talaba bo'lgan ko'plab maktab o'quvchilarini ham ko'p uchratmoqdamiz.

Shuni ta'kidlash joizki, fanni o'zlashtirish biroz murakkab jarayon, chunki o'zga tilni o'z ona tiliday o'rganib uni amaliyotda qo'llash ozgina qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Xuddi ana shu vaziyatda o'qituvchi tilni o'qitishda turli zamonaviy metodik qo'llanmalar, materiallar va uslublardan oqilona foydalanib o'quvchilarni tilga bo'lgan qiziqishini orttirishi kerak. Quyida shu kabi pedagogik uslublarning mohiyati va ularning amalda qo'llay olishdagi samaralari haqida so'z yuritamiz[1,678-882b].

Pedagog jarayonni tashkil etishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Hozirgi kunda pedagoglarning til o'rganuvchilar bilan muloqot o'rnatish uchun zamonaviy, innovatsion texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoji paydo bo'lmoqda. Bu texnologiyalardan biri interaktiv dars usulidir. Lotinchadan "inter"- o'zaro, "akt"- muloqot, yaqinlikdir. Interaktiv metodlardan foydalanishdan maqsad shuki, darslarni sermazmun, qiziqarli, eng muhimi samarali qilib o'tkazishdir. Bunda o'quvchining bilimi ortadi, shaxsiyati rivojlanadi va o'quv jarayonining maxsuldorligi ko'payadi. Ma'lumki yaxshi o'zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o'tirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishlash, o'ylab ko'rish, muhokama qilib chiqish, yordamchi vazifalarni bajarishi kerak. Interaktiv usul metodalaridan foydalanganda o'quvchilarning barcha psixik jarayonlari idrok, ong, diqqat, xotira, sezgi, aql, tasavvur, tafakkuri ishga tushib muammoni yechish uchun izlanishga, qidirishga, fikrni rivojlantirishga yo'naltiriladi[3].

Mashg'ulotlarni tashkil qilish usullari:

- miya hujumi;
- dumaloq stol;
- ruchka stol ustida ;
- rag'batlantirish;
- klaster;

bu turdagi turli xil metodlar faqatgina o'quvchining yaxshi bilimga ega bo'lishi va o'z ustida ko'proq ishlashiga yordam beradi.

Miya hujumi - bu mashg'ulot ishtirokchilarni muayyan bir mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlarini va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beradi[5].

Dumaloq stol metodi - bunda stol ustiga o'tilgan darsga aloqador savol yozilgan qog'oz tashlanadi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib boshqa talabaga uzatadi. Hamma o'z javoblarini yozib bo'lgandan keyin tahlil qilinadi: noto'g'ri javoblar o'chirilib, to'g'ri javoblar muhokama qilinadi, o'quvchilar bilim

darajasi baholanadi. Bu usulda nafaqat yozma, balki ogʻzaki koʻnikmalar shakllanadi, oʻquvchilarning oʻtilgan mavzu yuzasidan maʼlumotlari toʻliq boʻladi[3].

Ruchka stol ustida metodi- ushbu mashgʻulotda barcha oʻquvchilar ishtirok etadi. Ular dastlab ikki guruhga boʻlinib olishadi va har bir guruhdan bittadan oʻquvchi kelib, stol ustiga qoʻyilgan qoʻgʻozga oʻqituvchi tomonidan tuzilgan gramatika yoki mavzuga aloqador savolga javob yozishadi. Agar uni javobi xato boʻlsa navbatni keyingi oʻquvchiga topshiradi va ruchkasini stolning ustiga qoldiradi. Bunda qaysi jamoaning ruchkasi stol ustiga koʻp qoʻyilsa yaʼni savolga xato javob bersa, oʻsha jamoa yutqazadi. Agarda teskarisi boʻlsa, aktiv talabalar bilim darajasiga qarab baholanadi.

Ragʻbatlantirish metodi- bunda oʻqituvchi bergan topshiriqlar va savollarga kim koʻp javob bersa, ana oʻsha oʻquvchilarni turli xil shirinliklar, rangli kartochkalar va shunga oʻxshash oʻquvchiga mativatsiya beradigan narsalar berib turilishi nazarda tutiladi. Masalan, uyga vazifa qilib yangi soʻzlar yodlashga berilgan boʻlsa, kim ularning barchasini toʻliq xatosiz aytib bersa, xuddi shu oʻquvchi ragʻbatlantirilishi kerak. Natijada qolgan oʻquvchilarda ham qiziqish uygʻonadi va ular ham mana shunday yutuqlarni qoʻlga kiritishga harakat qilishadi. Oʻqituvchi esa bu holatda ularga yangi soʻzlarni tez va oson oʻrgatayotgan boʻladi[4].

Klaster metodi- bu metod oʻquvchilarga ixtiyoriy mavzu yuzasidan erkin, ochiq oʻylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil gʻoyalar toʻgʻrisida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bunda oʻqituvchi oʻquvchilarga ikkita mavzu beradi, masalan, "kitchen" va "bathroom" keyin ularning bajaradigan vazifasi mana shu mavzularga aloqador fikrlar, gaplar yoki soʻzlarni ingliz tilida bir biriga bogʻlab tuzishadi. Turli shakllar va ranglardan foydalanib klasteri tayyorlab topshirgandan soʻng oʻqituvchi xato va kamchiliklarini koʻrib chiqib ularga maslahatlar beradi va soʻngida kimning klasteri ajoyib va bexato tuzilgan boʻlsa, ular baholanadi [5].

Hozirgi kunda internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Global Internet dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan oʻqituvchilar va oʻquvchilar uchun zarur boʻlgan har qanday maʼlumotni olish uchun sharoit yaratadi. Darslarda ingliz tilida Internet yordamida bir qator didaktik muammolarni hal qilish mumkin: global tarmoq materiallaridan foydalanib oʻqish koʻnikma va malakalarini shakllantirish; maktab oʻquvchilarining yozish qobiliyatini oshirish; ularning soʻz boyligini toʻldirish; oʻquvchilarning ingliz tilini oʻrganish motivatsiyasini shakllantiradi. Bundan tashqari, maktab oʻquvchilarining ingliz tilida soʻzlashadigan mamlakatlardagi tengdoshlari bilan ishbilarmonlik aloqalarini va munosabatlarini oʻrnatish va qoʻllab quvvatlashga yordam berib kelmoqda. Koʻplab yoshlarimiz Internetda oʻtkaziladigan turli xil tanlovlar, viktorinalar, olimpiadalar va testlarda ishtirok etib boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan tajribalar almashishmoqda. Bu

esa chet tillarini o‘rganishda qo‘llash mumkin bo‘lgan zamonaviy usullardan biridir [2, 183-188b].

Xulosa qilib ayatadigan bo‘lsak, an’anaviy o‘qitish metodlaridan ko‘ra interfaol, zamonaviy metod va usullardan foydalanib darslarni tashkil etishning afzallik taraflari bir qancha. Yuqorida ta’riflab o‘tganimizdek, o‘quvchilarni ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirishda va ularga tez va oson samarali usullar bilan o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish bizning maqsadimiz hisoblanadi. Darsda o‘quvchilar faolligini oshirish va tilni o‘rganishga yordam beradigan tamoyillardan foydalanishni har bir pedagog o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yishi lozim. Chet tillarini o‘rganish birozgina murakkabroq ekanligini hisobga olgan holda har bir yosh darajasiga qarab o‘quvchilarni saralab olib, ular bilan individual ishlash ham tilni o‘rganishda sustkashlikka uchraydigan o‘quvchilarga ko‘mak beradi. Ingliz tilda albatta yangi so‘zlar asosiy ro‘lni o‘ynaydi. Shu sababli ham so‘zlarni esda qolarli interaktiv yo‘llar bilan yodlattirish ham bir metodika. Chunki yangi so‘zlar ingliz tilida gapirish, yozish va tushunish ko‘nikmalariga katta yordam beradi. Ingliz tilini biz ta’riflab o‘tgan metod va usullardan foydalangan holda o‘rganish va o‘rgatish eng tog‘ri yo‘ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sanayeva. G. M. ”Ingliz tilini o‘qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati va samaradorligi“, Oriental Renaissane: Innovative, education, natural and social sciences -jurnali, Toshkent-2021, 678-682 betlar.
2. Xalikova. L. U va Shakirova. S. T. ”Ingliz tilini o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanish“, Oriental Renaissane: Innovative, education, natural and social sciences -jurnali, Toshkent-2023, 183-188 betlar.
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/interfaol-metodlar-va-ularning-tasnifi>.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/interfaol-usullar>.<https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/oqitish-metodlari-va-ularning-tasnifi>.
5. <https://www.gazeta.uz>